



UMAR XAYYOM SHE'RIYATIDA G'OYAVIY MAZMUNNING  
SHAKLLANISHI VA MOHIYATI

**Ishankulova Diyora Allovidinovna**

*Dotsent, Tashkent State Transport University,  
Department of Foreign Languages.*

**Annotatsiya** *Ushbu tezisdagi fors-tojik adabiyotining buyuk shoiri Umar Xayyom ruboiylarining g'oyaviy-falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Shoir ijodida inson va borliq, hayot va o'lim, tabiat va inson munosabatlari markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, Umar Xayyom ruboiylarining G'arb adabiyotida, xususan, Angliyada keng tarqalishi va jahon adabiyotidagi ahamiyati yoritiladi. Ruboiy janrining ixcham shaklda chuqur mazmun ifodalash imkoniyatlari ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Umar Xayyom, ruboiy, fors-tojik adabiyoti, falsafiy lirika, inson va borliq, tabiat obrazlari, jahon adabiyoti, G'arb adabiyot*

**Abstract** *This conference paper analyzes the philosophical and ideological content of the rubaiyat of Omar Khayyam, a prominent poet of Persian-Tajik literature. His quatrains focus on human existence, life and death, and the relationship between man and nature. The study also highlights the reception of Khayyam's poetry in Western literature, particularly in England, and emphasizes his role in world literature. The expressive capacity of the rubai genre as a concise form of profound meaning is discussed.*

**Keyword:** *Omar Khayyam, rubaiyat, Persian-Tajik literature, philosophical poetry, human existence, nature imagery, world literature, Western reception*

**Аннотация** *В тезисах рассматривается философско-идейное содержание рубаи Омара Хайяма — выдающегося поэта персидско-таджикской литературы. В его творчестве центральное место занимают проблемы человеческого бытия, жизни и смерти, а также взаимоотношения человека и природы. Освещается распространение рубаи Омара Хайяма в западной литературе, в частности в Англии, и их значение в контексте мировой литературы. Подчеркиваются выразительные возможности жанра рубаи.*

**Ключевые слова:** *Омар Хайям, рубаи, персидско-таджикская литература, философская лирика, человек и бытие, образы природы, мировая литература, западная рецепция*

**Kirish.** Umar Xayyom betakror va nomi abadiylikka muhrlangan shoir bo'lib, uning eng qimmatli adabiy asarlari mazmunga boy ruboiylaridir. Ularning qo'lyozmalari hali to'laligicha topilmagan, ammo eng qadimgi nusxaning 255 ta ruboiysi Kembrij universitetida saqlanmoqda. Aynan shu qo'lyozma uni G'arbda, xususan, Angliyada mashhur qilgan. Umar Xayyomning Angliyadagi buyuk shuhrati aynan ruboiylar tufayli yuzaga keldi, unda dard va shodlik, ezgulik va yomonlik, pastlik va yuksaklik va inson



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



hayotining boshqa jihatlari tasvirlangan. Shu munosabat bilan ingliz olimi Alfred Tennison (1809-1892) Umar Xayyom shaxsiga shunday ta’rif beradi: “Umar Xayyom nafaqat Sharq, balki G‘arb quyoshi sanaladi. Shoirning buyuk g‘oyalarga to‘la asarlari, insoniyat qalbini yoritadi”. Asl matn: “Omar Khayyam is not only the Sun of East, but he is the Sun of West. His mind is full of great thoughts, which adores every heart of human of the world”. Buyuk Sharq dahosi Umar Xayyom o‘zining ruboiylarini dunyoning inson, Yer, osmon, oy, o‘lim, hayot, ishq, umid kabi barcha mavjudot va maxluqotlarga bag‘ishlagan va shuning uchun ham jahon shoiri unvoniga sazovor bo‘lgan.

Ёрони мувофиқ ҳама аз даст шуданд,  
Дар пойи ачал ягон-ягон паст шуданд.  
Хўрдем зи як шароб дар маҷлиси умр,  
Давре ду-се бештар зи мо маст шуданд .

Uning ruboiylari millati, dini, irqidan qat’i nazar, odamlarning dardiga, g‘am-g‘ussalariga, o‘zliklariga malham bo‘lgani uchun shoir vafotidan keyin ham asrlar osha uning siymosi insoniyat uchun boqiy va abadiydir:

All my companions, one by one died  
With Angel of Death they now reside  
In the banquet of life same wine we tried  
A few cups back, they fell to the side .

Darhaqiqat, shoirning mavzu va mazmun jihatdan ko‘lami keng ruboiylari dunyoning turli xalqlari va millatlari uchun “Xayyomning adabiy maktabi” sifatida xizmat qilib kelmoqda. Quyida yana bir ruboiyga e’tibor qaratamiz:

Чун булбули маст роҳ дар бўстон ёфт,  
Рўйи гулу чом бодаро хандон ёфт,  
Омад ба забони ҳол дар гўшам гуфт:  
Дарёб ки умри рафтаро натвон ёфт .

Tarjimada ruboiyning umumiy mazmuni keltirilgan:

When the canary made its way to the field  
Found the rose and wine smiling, kneeled,  
In tongues its message in my ear it thus reeled  
Hark, no moment in time did twice yield .

Ruboiy she’riyatning eng kichik janrlaridan biri hisoblansa -da, ularning aksariyati katta risola hajmidagi mazmuni ifoda etadi va har qanday shoir ham to‘rt misrada katta mavzuni sig‘dirib, mahorat bilan ko‘rsatib bera olmaydi. Bu masala yuzasidan ingliz tadqiqotchisi Joan Koul shunday ta’kidlagan edi: “Fors to‘rtliklari (ruboiylari) o‘n to‘qqizinchi asr oxiri va yigirmanchi asrning birinchi yarmiga qadar yuqori maqomga ega bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ular jahon hamjamiyati ongida yana-da kengroq o‘rin egalladi”. Asl matn: “That the Persian quatrain was even more influential in the late nineteenth century and the first half of the twentieth, however, has gradually increased in the public consciousness”. Umar Xayyom inson va tabiat, ularning maqomi, tabiat va uning go‘zalliklari kuychisi, yeru





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



osmon va hayotning past-balandliklari va shu kabi juda ko‘p muhim mavzular to‘g‘risida kuylovchi shoirdir

Ҳар сабза, ки бар канори чўйе растааст,  
Гўйй зи лаб фаришта хўйи раста аст.  
По бар сари сабза то ба хорй ниҳй,  
Кони сабза зи хоки моҳрўйй раста аст .

Manzara go‘zalligi, obu havo, maysayu yomg‘irni tarannum etish ham ingliz xalqiga xos odatdir:

The grass that grows by every stream  
Like angelic smiles faintly gleam  
Step gently, cause it not to scream  
For it has grown from a lover's dream .

Umar Xayyom ruboiylarida inson va uning hayotini anglash o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shoir borliqni inson bilan tasavvur etadi. Uning nazarida borliq inson atrofi da yaratilgan. Shuning uchun olamni uzukka va insonni uning ustidagi qimmatli toshga o‘xshatadi. Agar uzukning bu toshi bo‘lmasa uning qimmatli qolmaydi. Inson o‘rni borliqda ana shu qimmatli tosh kabi muhimdir. Xayyom barcha mavjudotlardan insonni yuqori baholaydi. Quyidagi ruboiy fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi:

Мақсуд зи чумла офариниш моем,  
Дар чашми хирад гавҳари биниш моем.  
Ин доираи чаҳон чу ангуштарй аст,  
Бе ҳеҷ шакке нақши нигинаш моем .

Yuqoridagi baytning inglizcha tarjimasi ham aniq aks ettirilgan:

The purpose of our creation,  
We are the jewel of our vision in the eye of wisdom.  
This world is like a ring,  
Without a doubt, we are its jewel .

**Xulosa** . Fors tojik adabiyotining mumtoz shoir va mutafakkirlari ijodida tarixiy manbalar va ularni manbalari alohida o‘ringa ega. Bunday daholar ijodi tabiat hodisalari va unsurlari mohiyati orqali inson idrokida mujassamlashgan. Shu bois shoirlar o‘z asarlarini yaratishda real voqealardan ko‘proq foydalana boshladilar. Umar Xayyom o‘zining ruboiylarida ham tabiatning turli unsurlarining inson hayotiga ta’sirini aks ettirish uchun ularning ijobiy va salbiy tomonlarini ixcham shaklda yaratgan. Umar Xayyom ruboiylar yaratishda tarix va adabiyotning ko‘zga ko‘ringan namoyandalari tasviridan foydalangan. Shoirning har bir ruboiysida inson hayotiga oid mufassal mulohazalar aks etgan.

### References

1. ARBERRY, A. J. Omar Khayam, a New Version Basod upon Recent Discoveries.- London: Murray, 1959.- 58 p.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



2. BURGESS, A. Graves and Omap.-Encountev, 1968, vol. Jan., № 1, p. 77.
3. Zhukovsky, V. Omar Khayyam and the "wandering" foursome / V.Zhukovsky // Collection "Al-Muzaffarie" .- SPb, 1897. p. 325-363.
4. Johannan, J .; Secrets of Asian Literature /J.Johannan//Economist.-1967.-2- December.
6. Miqdadi, B. Speech in the Translation of Poetry / B. Quantitative // University Journal.-№ 10.-S. 76-81.
7. Nazirova, H. Jilvahoi sheiri kuhan / H. Nazirova // Voice of the East. 1976.- № 5.- P.140-144.
8. KHAVVAM. O. The Rubaiyat / Anev transi. With criticalcommentarias and Omar Ali-Shah.-London: Cassel, 1967.-38p.
9. Hidayat, S. Songs of Khayyam / S. Guidance // Voice of the East. 1991. - № 1. - C. 129 - 142.
10. Hashim, R., Belan, W. Noise around a manuscript / R. Hashim, W .; Belan // Voice of the East. - 1971. - № 12. - C. 119 - 124.
11. Ishankulova D.A Исследования Рубайята Омара Хайяма в Англии\International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences -С.135- 140
- 12.Ишанкулова Д.А Поиски продленного Хайяма-\Узбекистан -С-474
- 13.Ишанкулова Д.А Предпосылки к перспективе перевода и исследования рубайята Омара Хайяма в Англии\ Academy\ Россия
14. Д А Ишанкулова Переводы Фицджеральда открытие Хайяма в Англии\ Экономика и социум, 2020
15. Ishankulova D.A Opening Khayyam in England \Academic Globe:Inderscience Reserch 3(04),17-23

